



2025-2026

[www.eyis.org.uz](http://www.eyis.org.uz)

## BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA TRANSFORMATSIYA JARAYONINING ROLI

PhD S. Omonov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Sh. Eshonqulov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Zamonaviy sharoitda bank tizimi har qanday iqtisodiyotning moliyaviy infratuzilmasining asosiy bo'g'ini bo'lib, resurslarni safarbar etish, real sektorni moliyalashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Jahonda bank tizimi iqtisodiyotning barqarorligini belgilovchi moliyaviy infratuzilmaning eng muhim elementi hisoblanadi. So'nggi o'n yilliklarda bank sohasi globallashuv, raqamlashtirish, o'sib borayotgan raqobat, tartibga solish o'zgarishlari va mijozlarning kutilmalari ta'sirida sezilarli transformatsiyalarni boshdan kechirdi. So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimi iqtisodiy islohotlar, valyuta bozorini liberallashtirish, moliyaviy xizmatlarni raqamlashtirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalg etish bilan bog'liq keng ko'lamli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu sababli bank tizimini takomillashtirishda transformatsiya jarayoni xorij tajribasini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Bank tizimidagi transformatsiya jarayonlari bir necha bosqichli yondashuvlar asosida amalga oshirildi. Jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarda 2008-yilgi moliyaviy inqirozdan so'ng banklarni rekapitalizatsiya qilish, ishonchni tiklash, muammoli aktivlarni boshqarish va "stress-test" tizimlarini joriy etish orqali tizim barqarorligini mustahkamlashga katta e'tibor qaratildi. Germaniya va Niderlandiya kabi davlatlarda davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish va ulardagi korporativ boshqaruvni kuchaytirish transformatsiyaning asosiy yo'nalishi bo'ldi.

Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya, Singapur va Malayziya banklari esa raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish, fintech kompaniyalar bilan integratsiya va elektron xizmatlar orqali moliyaviy inklyuziyani oshirish yo'lini tanlashdi. Masalan, Singapurda MAS (Monetary Authority of Singapore) tomonidan raqamli bank litsenziyalari joriy qilinib, moliyaviy xizmatlarning raqamli transformatsiyasi sezilarli darajada tezlashtirildi.

AQSH bank tizimida esa transformatsiya asosan quyidagi omillar asosida shakklandi: markazlashtirilgan tartibga solish, moliyaviy innovatsiyalar (blockchain, AI, open banking), shuningdek, banklar o'rtaqidagi raqobat muhitini kengaytirish. JPMorgan Chase va Wells Fargo kabi yirik banklar sun'iy intellekt, bulut texnologiyalari va avtomatlashtirilgan xizmatlar orqali o'zlarining operatsion samaradorligini oshirishga katta investitsiyalar yo'naltirdilar.

Rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, Hindiston, Braziliya va Indoneziyada bank transformatsiyasi ko'proq moliyaviy xizmatlardan foydalanishni ommaviylashtirish va past daromadli qatlamlar uchun moliyaviy inklyuziya darajasini oshirishga

yo‘naltirildi. Hindistonning "Jan Dhan Yojana" dasturi bank hisob raqamlarining ochiqligini oshirish orqali moliyaviy tizimga ishonchni kuchaytirdi.

### 1-jadval

#### Xalqaro bank transformatsiyasi: taqqoslama tahlil

Davlat	Transformatsiya yo‘nalishi	Asosiy regulator roli	Natija / samaradorlik
Germaniya	Banklarni xususiy lashtirish, korporativ boshqaruvni kuchaytirish	ECB va BaFin tomonidan bank nazorati kuchaytirilgan	Bank tizimi barqarorligi oshdi, kredit ishonchliligi tiklandi
Singapur	Raqamli bank litsenziyalari, fintech integratsiyasi	MAS raqamli litsenziyalar berib, raqamli bozorga yo‘l ochdi	Raqamli xizmatlar sifati oshdi, raqamli banklar paydo bo‘ldi
AQSH	AI, blockchain, bulut texnologiyalari orqali raqamli transformatsiya	Federal Reserve va OCC innovatsiyalarni tartibga soldi	Banklar raqamli raqobatga tayyor bo‘ldi, mijoz tajribasi yaxshilandi
Hindiston	Moliyaviy inklyuziya, davlat dasturlari orqali aholini banklashtirish	RBI va Moliya vazirligi tomonidan banklashtirish dasturlari boshqarildi	Aholining katta qismi moliyaviy tizimga jalb qilindi

*Manba: Rasmiy manbalar asosida shakllantirilgan*

1-jadvalda keltirilgan tahlilda Germaniya, Singapur, AQSH va Hindiston kabi turli institutsional rivojlanish bosqichidagi mamlakatlar misolida bank tizimidagi transformatsiya yo‘nalishlari va ularning samaradorligi sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Bunda har bir mamlakat bank tizimi transformatsiyasini ko‘rib chiqamiz:

1. AQSH bank sektorida transformatsiya ilg‘or texnologiyalar – sun’iy intellekt, blokcheyn, bulutli tizimlar – orqali amalga oshirilgan. Bu texnologiyalar mijoz tajribasini yaxshilash, xizmatlar tezligini oshirish va raqamli xavfsizlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynagan. Regulyatorlar (Federal Reserve va OCC) innovatsion faoliyatga mos ravishda huquqiy bazani takomillashtirgan.

2. Hindiston transformatsiyasi moliyaviy inklyuziyaga qaratilgan. Davlat tomonidan amalga oshirilgan "Jan Dhan Yojana" kabi dasturlar orqali qishloq joylar va past daromadli qatlamlar bank tizimiga jalb etilgan. RBI (Reserve Bank of India) va Moliya vazirligi bu jarayonni kuchli qo‘llab-quvvatlagan.

Umuman olganda har bir mamlakat bank tizimi transformatsiyasu o‘ziga xos xususiyatga ega Masalan, Germaniya — institutsional islohotlar va xususiy lashtirish orqali transformatsiya qilgan bo‘lsa, Singapur — raqamli innovatsiyalar asosida barqaror rivojlanishga erishgan. AQSH — texnologik modernizatsiya orqali transformatsiyani amalga oshirgan. Hindiston esa — inklyuziv moliyaviy xizmatlar orqali ijtimoiy qamrovni kengaytirgan.

Bank tizimini takomillashtirishda transformatsiya jarayoni xorij tajribasini o'rghanish asosida quyidagilarni qayd etish lozim:. Bank tizimini raqamli infratuzilma asosida modernizatsiya qilish zarur. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'lov tizimlarini real vaqt rejimida integratsiyalash bank xizmatlarining ommaviy va tezkor bo'lishiga olib keladi. O'zbekistonda FAST, PayNow kabi tizimlar joriy etilishi orqali raqamli iqtisodiyotning poydevori mustahkamlanadi. Shuningdek, raqamli banklarni litsenziyalashni samarali tashkil etish orqali raqobat va innovatsiyalarni rag'batlantirish kerak. Singapurda yangi raqamli banklar mavjud moliyaviy xizmatlar bilan sog'lom raqobat yaratgan. O'zbekistonda raqamli banklar uchun litsenziyalash jarayonini samarali tashkil etish moliyaviy texnologiyalar rivojiga turtki bo'ladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, moliyaviy transformatsiyani qo'llab-quvvatlovchi tartibga solish tizimini tashkil etish muhim hisoblanadi. MAS (Singapur moliya regulyatori) tomonidan taqdim etilgan FSTI kabi dasturlar orqali fintechlar, startaplar va banklar innovatsion texnologiyalarni sinovdan o'tkazishda moliyaviy yordam olmoqda. O'zbekistonda ham shunday moliyalashtiruvchi mexanizm zarur.